

KICHIK YOSHDAGI O`QUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Eshmanova Bahor Alisher qizi

Chirchiq davlat pedagogika

Universiteti Boshlang`ich ta`lim fakulteti 3-bosqich

Talabasi

bahoresmanova@gmail.com

Otaxonova Sumbula Xudoyor qizi

Annotatsiya: Maqolada kichik yoshdagisi o`quvchilarda kreativlikni rivojlanishiga, bilimga bo`lgan qiziqishini o`stirish, kichik yoshdagisi o`quvchilar yuqori sinfga o`tishganda o`qishga bo`lgan qiziqishini yo`qotmasligini oldini olish.

Kalit so`zlar: Kichik yoshdagisi o`quvchilar, kreativlik

Annotation: In the article, the development of creativity in young students, developing their interest in knowledge, and preventing young students from losing their interest in learning when they move to a higher grade are discussed.

Keywords: younger pupils, creativity

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev o`quvchi yoshlarni zamon talablariga mos yangicha ishlash, fikrlash va tashabbuskorlikka chaqirmaoqda. Ta`lim tizimi va mazmunini takomillashtirish, uni real hayotga tadbiq etish; shuningdek, yoshlarda inteluktual-ijodiy rivojlanish, ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatini rivojlanishiga bugungi kunda asosiy maqsadga aylangan. KREATIVLIK(lotincha “create”-yaratish, “creative”-yaratuvchi, ijodkor)-individning yangi g`oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma`nosini ifodalaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o`tkirlikni belgilab beradi.Kreativlik faoliyatini rivojlanishning asosi bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish, interfaol mashg`ulotlardan unumli foydalanish. Shu jumladan, o`quvchilarda aniq bir sohada chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini aniqlash, bolalarni keyingi rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib berish. 1-4-sinflar darsliklarida ham avvalgilariga nisbatan kreativlik ancha ko`paygan. Masalan, rangli rasmlar, nutqni o`stirish uchun mashqlar va boshqalar. Muhimi, kreativlikni rivojlanishda dars davomida o`quvchilarni guruh qilib ishlatish, ijodiy fikrlashni shakllantirishga doir treninglar o`tqazish, tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo`naltirilgan ijodiy mashqlar o`tkazish, darsdan keyingi mashg`ulotlar va to`garaklar faoliyatini tashkil etish katta samara beradi.1-4-sinflarda PIRLS TIMSS dasturlari shakllanmoqda. PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo`nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog`liq vazifalarga asosiy e'tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning bu turi nafaqat insho yozish yoki rasm chizish kabi asosan ichki dunyonи aks ettirish talab qilinadigan ta`lim kontekstiga,

balki g'oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo'lgan kengroq sohalarga ham taalluqlidir. O'quvchilarni mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni murakkab mujassamlashgan pedagogik hodisadir. Shundan kelib chiqqan holda, kerativ faoliy whole ham intellektual, ham individual yo'naliishlarga ega O'tgan asrning ikkinchi yarmigacha shaxsning kreativligi intellektualligi bilan bir xil darajada baholangan. Kreativlik o'zining tabiatiga ko'ra, intellektdan tubdan farq qilishi nazariy jihatdan asoslangach, bu sohadagi tadqiqotlar va tajribalarning ko'lami kengaydi. Turli olimlar tomonidan kreativlik va kreativ faoliy whole tushunchasiga turlicha yondashilgan. Bu yondashuvlarning asosini kreativ faoliy whole natijasida vujudga keladigan mahsulot yoki muayyan muammoning yechimi tashkil qiladi. Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytish kerakki, o'quvchilarni kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, kontseptsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli- faoliyatli yondoshuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Kreativ salohiyat deganda o'quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o'zları tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar degan fikr yetakchilik qiladi. Kreativlik xususida gap borar ekan, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, xis-tuyg'ularida, xatti-xarakatida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorlikning muhim omili sifatida ham aks etadi. Chunki har bir inson ham o'z dunyoqarashi va bilimiga asoslangan holatda faol bo'lishga intiladi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib zamонавиу та'lim sifatini oshirish, ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan o'quvchilarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish muammozi, zamонавиу о'qitish usullaridan keng foydalangan holda o'quvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish davr talabidir.

Didaktik o'yinlar. O'quvchining aqliy va jismoniy hamda aralash o'yinlarni tashkil etadi. Bu o'yinlar orqali o'quvchining aqliy-jismoniy va ruhiy-psixologik; estitik va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. O'quvchilarda kreativlikni shakllantirishda bir qancha metodlardan foydalinish mumkin. Eng ajoyib va tushunarli metod "Aqliy hujum" metodidir. Bundan tashqari o'quvchini erkin fikrashi uchun "Rasm chiz va hikoya yoz" metodi ham unumli foyda beradi. Yoki "o'rniga qaytar"

metodi ham o`quvchini diqqat e`tiborini bir joyga jamlashga yordam beradi.

“Aqliy hujum”

“Rasm chiz va hikoya tuz”

“O`rniga qaytar”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. Ma`naviyat-2008
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi o'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi (2020) UO'K 116.25.326 BBK 74.88(5Узб).
4. A.Ismailov [va boshq.]. Kreativ fikrlashni baholash. Toshkent: "Ta'lim
5. sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021
6. Exsonova F.T. O`quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish yo'llari Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2018.
7. Egamberliyeva N., Xodjaev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari:
8. mohiyat, talqin va yechim. T.:—Fan va texnologiya, 2013.
9. Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. Avtoref. – T., 2017.
10. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish.: Avtoref. dis. ... ped. fan. bo'yicha falsafa dok. – T., 2017.
11. JI Suyundikovich. (2020). Tarixni o'qitish metodikasi rivojlanishi tarixidan. Fan va ta'lim, 1 (5), 195
12. Muslimov N.A. Kasb ta`limi o`qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2007.
13. Muslimov N.A. va boshqalar. “Pedagogning innovations faoliyatini rivojlantirish” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent. 2019
14. Nishanova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxs xislatlari Xalq ta'limi-Toshkent, 2001
15. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5
16. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy dasturi
17. markazi. Kreativ fikrlashni baholash (2021) UO'K 37.014.6:001 KBK 74.00 T 12

18. SHaripov SH. O`quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyiligini ta`minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. –T., 2012
19. O'quv uslubiy qo'llanma.